

**Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari tomonidan  
haftalik qilingan ishlar yuzasidan  
MA’LUMOT**

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari 30,31 yanvar, 1-3 fevral kunlari **Respublika Ixtisoslashtirilgan Terapiya va Tibbiy reabilitatsiya, Dermatovenerologiya va Kosmetologiya, Xirurgiya, Pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari** hamda **Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli tibbiyot klinikasi shifoxonasida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **223 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash hamda tibbiy yordam sifati yuzasidan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

O‘tkazilgan telemuloqatlar natijasida **36(16,1%) nafar** bemorlar shifoxona shart-sharoitidan, o‘z hisobidan dori vositalari sotib olganligi, shifokorlarning davolash sifati yuzasidan **o‘z e’tirozlarini bildirgan**. Ushbu fuqarolardan **1(2,7%) nafari yozma murojaat** qilish uchun tashkilot manzilini oldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga (**99 353 93 54**)ga hafta mobaynida **218 ta** fuqarolardan murojaatlar bo‘ldi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligidan kelgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari hafta davomida **441 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga imtiyozga ega fuqarolardan **5 ta og‘zaki murojaatlar** kelib tushdi.

**Shulardan:**

**Respublika Ixtisoslashtirilgan Xirurgiya, Urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari** hamda **Bolalar milliy tibbiyot markazida** davolanayotgan bemorlar davolanish sifati yuzasidan Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaatlar** qilishdi. Ushbu murojaat bo‘yicha shifoxona mas’ullariga ma’lumotlari berilib ogohlantirildi, **og‘zaki murojaatlar ijobjiy hal qilindi**.

Sirdaryo viloyati Shirin shahar tibbiyot birlashmasida ishlaydigan hamshiradan oylik maoshlari vaqtida tushmayotganligi yuzasidan Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaat** qildi. Ushbu murojaat bo‘yicha viloyat bo‘linma boshlig‘iga ma’lumot berildi hamda ijobjiy hal qilish yuzasidan choralar ko‘rish shartligi aytildi.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi  
Matbuot xizmati.**